



HISTORICAL ROOTS AND INNOVATIVE DIRECTIONS OF PUPPET THEATER CREATIVE ACTIVITY IN THE KASHKADARYO REGION

Boburjon Ganiyev

Lecturer at Karshi State University

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: puppet theatre, Kashkadaryo Province, puppet games, folk theatre, national repertoire, Kashkadaryo Provincial Puppet Theatre, staging, folk tales, tours.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article will scientifically analyze the historical roots of the art of puppet theater, the process of formation and stages of development in the territory of the country. The study highlights the elements of puppetry found in the samples of traditional ritual and folk art in the region, their artistic and spiritual functions and the role of this art in the structure of local cultural processes. Also analyzed are innovative directions observed in the activities of the regional Puppet Theater in the years of Independence - the renewal of stage technologies, the enrichment of dramaturgy and repertoire content, modern pedagogical approaches aimed at a young audience, creative research on improving performance skills. The results of the article will reveal the territorial features of the art of puppet theater, as well as show on a scientific basis its adaptation to the needs of the consumer at today's stage and increasing cultural and educational significance.

QASHQADARYO HUDUDIDA QO'G'IRCHOQ TEATRI IJODIY FAOLIYATINING TARIXIY ILDIZLARI VA INNOVATSION YO'NALISHLARI

Boburjon G`aniyev

Qarshi davlat universiteti o`qituvchisi

Qarshi, O`zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: qo'g'irchoq teatri, Qashqadaryo, qo'g'irchoq o'yini, xalq teatri, milliy repertuar, Qashqadaryo viloyat

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo hududida qo'g'irchoq teatri san'atining tarixiy ildizlari, shakllanish

qo'g'irchoq teatri, sahnalashtirish, xalq ertaklari, gastrol safarlari.

jarayoni va rivojlanish bosqichlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda hududdagi an'anaviy marosim va xalq ijodi namunalarida uchraydigan qo'g'irchoqchilik unsurlari, ularning badiiy-ma'naviy funksiyalari hamda mazkur san'atning mahalliy madaniy jarayonlar tarkibidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, Mustaqillik yillarida viloyat qo'g'irchoq teatri faoliyatida kuzatilgan innovatsion yo'nalishlar - sahna texnologiyalarining yangilanishi, dramaturgiya va repertuar tarkibining boyishi, yosh tomoshabinlar auditoriyasiga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ijrochilik mahoratini oshirish borasidagi kreativ izlanishlar ham tahlil qilinadi. Maqola natijalari qo'g'irchoq teatri san'atining hududiy xususiyatlarini ochib berish bilan birga, uning bugungi bosqichdagi iste'molchi ehtiyojlariga moslashuvi va madaniy-ma'rifiy ahamiyatining ortib borayotganini ilmiy asosda ko'rsatib beradi.

ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ И ИННОВАЦИОННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КУКОЛЬНОГО ТЕАТРА В КАШКАДАРЬИНСКОМ РЕГИОНЕ

Бобуржон Ганиев

Преподаватель

Каршинского государственного университета

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: кукольный театр, Кашкадарья, кукольное представление, народный театр, национальный репертуар, Кашкадарьинский областной кукольный театр, сценическая постановка, народные сказки, гастрольные поездки.

Аннотация: В данной статье с научной точки зрения анализируются исторические корни, процесс формирования и этапы развития искусства кукольного театра в Кашкадарьинском регионе. В исследовании рассматриваются элементы кукольного искусства, встречающиеся в традиционных обрядах и образцах народного творчества региона, их художественно-духовные функции, а также место данного вида искусства в системе местных культурных процессов. Кроме того, анализируются инновационные направления, наблюдаемые в деятельности областного кукольного театра в годы Независимости, такие как обновление сценических технологий, обогащение

драматургии и репертуара, современные педагогические подходы, ориентированные на детскую аудиторию, а также творческие поиски, направленные на повышение исполнительского мастерства. Результаты статьи раскрывают региональные особенности искусства кукольного театра и научно обосновывают его адаптацию к современным потребностям зрителей и возрастающее культурно-просветительское значение.

Kirish. Qo'g'irchoq teatri chodir ichida yoki parda ortida yashiringan aktyor-qo'g'irchoqbozlar tomonidan harakatga keltirib ko'rsatiladigan qo'g'irchoqlar tomoshasi bo'lib, qo'g'irchoqlarning turi, boshqarish tizimi va katta-kichikligi bilan bog'liq holda xilma-xil shakllari yuzaga kelgan. Milliy an'analar, shart-sharoit, dramaturgik va sahnaviy maqsadlar ham qo'g'irchoq teatri tomoshalarining shakli va mazmuniga ta'sir ko'rsatadi. Inson xarakteri, jamiyat hayotini yorqin va umumlashma tarzda aks ettirish, majoz, sahnaviy bo'rtirma, satirik hamda qahramonlik yo'nalishlari qaror topishini ta'minlagan. Qo'g'irchoq teatri tabiatni ilohiylashtirish kabi marosimlarga borib taqaladi. Gerodot, Ksenofont, Aristotel, Goratsiy, Avreliy va boshqalarning ma'lumotlari bo'yicha miloddan avvalgi V-VI asrlardayoq paydo bo'lgan.[1]

O'zbek xalq og'zaki ijodi va an'anaviy teatrlashtirilgan tomosha turlari ichida qo'g'irchoq teatri alohida o'rin tutadi. Qo'g'irchoq o'yini nafaqat bolalar o'yin-kulgisi, balki kattalar orasida ham keng tarqalgan satirik-hazil janridagi tomosha bo'lgan. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz, Kitob, Qarshi, Qamashi, Ko'kdala tumanlarida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qo'g'irchoqbozlar guruhlarini faoliyat yuritganligi haqida ko'plab etnografik ma'lumotlar mavjud[2]. O'zbekistonda qo'g'irchoq teatri o'tmishdan taraqqiy etgan bo'lib, uning «chodir xayol», «chodir jamol», «fonus xayol» turlari faoliyat ko'rsatib kelgan. Mustamlaka va sovet davrida ham xalq qo'g'irchoqbozlarining 40 ga yaqin to'dasi (har to'dada qo'g'irchoqboz, korfarmon, 2-3 sozanda bo'lgan) ish olib borgan. Yangi shakldagi qo'g'irchoq teatri havaskorligi XX asrning boshlaridan boshlangan. 1939-yil Toshkentda Respublika qo'g'irchoq teatri, 1968-yil Andijonda «Lola» teatri tashkil topdi. Qo'g'irchoq teatrining professional shaklga o'tishi ham aynan shu davrdan boshlanadi. 1939-yilda Toshkentda birinchi o'zbek davlat qo'g'irchoq teatri ochilishi respublikaning barcha viloyatlarida shu yo'nalishda teatrlar tashkil etishga turtki bo'ldi[3].

1994-yilda Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahrida viloyat qo'g'irchoq teatri tashkil etildi. Qashqadaryo viloyat qo'g'irchoq teatri O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Ishlari Vazirligining 1994-yil 15-mart № 53-sonli buyrug'iga asosan tashkil etilgan bo'lib, Qarshi shahar

hokimining 1997-yil 24-iyun №X-522 d/6 qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. Teatr janri qo'g'irchoq spektakllarini sahnalashtirishga ixtisoslashtirilgan va 49 ta shtatlar jadvali tasdiqlangan. Teatr 1994-yil 15-martda "Dangasaning holi voy" (rejissyor Sh. Yusupov, rassom V. Akudin) spektakli bilan ochilgan[4].

Natijalar va muhokama. Qashqadaryo viloyatida qo'g'irchoq teatri "chavandoz o'yinlari" yoki "qiziqchi-qizchoq" nomi bilan ham mashhur bo'lgan. "Shahrisabz tumani Qo'shchinor qishlog'idan chiqqan mashhur qo'g'irchoqboz Mirzaqul bobo haqida mahalliy oqsoqollar xotiralarida qiziqarli ma'lumotlar uchraydi. U o'zining yuksak mahorati bilan bir vaqtning o'zida ikki qo'g'irchoqni boshqarishga qodir bo'lgan. Tomoshabinlar ta'riflashicha, uning o'ng qo'lidagi qo'g'irchoq "boy" obrazini, chap qo'lidagi qo'g'irchoq esa "qul" obrazini gavdalantirib, ularni o'zaro mantiqiy bog'langan dialogga kiritgan. Mirzaqul boboning bu uslubi nafaqat qo'g'irchoqchilik san'ati an'alarining yorqin namunasi, balki uning sahnaviy fikrlash, ritmni ushlab va bir vaqtning o'zida ikki xil xarakter yaratish qobiliyatining yuksak darajada bo'lganidan dalolat beradi. Kitob tumanida qo'g'irchoqbozlik oilaviy hunarga aylangan. Mashhur Xo'jaevlar oilasidan chiqqan qo'g'irchoqbozlar 1920-1930-yillarda nafaqat o'z tumanida, balki Buxoro, Samarqand viloyatlarida ham borib tomoshalar ko'rsatgan.

Qo'g'irchoqlar yog'och, mato, teri va jun aralashmasidan yasalgan. Eng keng tarqalgan qo'g'irchoqning boshi yog'ochdan uyilgan, tanasi mato bilan qoplangan bo'lgan. Ovoz chiqarish uchun qo'g'irchoqboz "mizrob" deb atalgan maxsus asbobdan foydalangan.

Sovet davrida O'zbekistonda qo'g'irchoq teatri professional darajaga ko'tarildi, ammo Qashqadaryo viloyatida alohida viloyat qo'g'irchoq teatri tashkil etilmagan. 1939-yilda ochilgan Respublika qo'g'irchoq teatri (hozirgi O'zbekiston milliy qo'g'irchoq teatri) asosiy markaz bo'lib, uning ta'sirida viloyatlarda, shu jumladan Qashqadaryoda, an'anaviy guruhlar faoliyatini davom ettirgan. Masalan, 1960–1980-yillarda respublika miqyosida "Alpomish", "Go'ro'g'li" kabi milliy ertaklar asosidagi spektakllar qo'yilgan bo'lib, Qashqadaryo qo'g'irchoqbozlar ham shu repertuarga asoslangan holda tomoshalar ko'rsatgan. Viloyatda professional teatr o'rniga xalq ansambllari va masxarabozlar guruhlari faol bo'lgan. 1985-yilga kelib respublika bo'yicha qo'g'irchoq teatrlarining moddiy-texnik bazasi yaxshilangan edi, ammo Qashqadaryoda bu jarayon sekin kechgan[5]. An'anaviy qo'g'irchoq o'yinlari sovet senzurasida ostida ham saqlanib, xalq orasida mashhur bo'lib qolgan.

Qashqadaryo qo'g'irchoq teatri dastlab tashkil topgan yillarda Mulla To'ychi Toshmuhamedov nomidagi viloyat musiqali drama teatri binosida faoliyat ko'rsatdi. Teatr ixtiyoridagi 80 o'rinli zal mazkur qo'g'irchoq teatri uchun moslashtirildi. Dastlabki yillarda teatrdan S. Berdiev, J. Toshev, D. Karomov, R. Mustafoeva, X. Sattorov, A. Ro'zieva, B. Pratov, I. Butunov, A. Sattorovlar ishlagan. Faoliyati davomida teatr "Qopqoq", "Qovoqvoy va qovunlar",

“G‘alamislar qo‘zg‘oloni” (muallifi va rejissyor X. Sattorov), “Chiychiyoyning sarguzashtlari” (Z.Chepovetskiy; Sh. Yusupov), “Quvnoq masxarabozlar” (X.Sattorov; G‘.Hamroyev), “Badjahl quyoncha” (M.Suponan; G‘.Hamroyev), “Chimildiq” (E.Xushvaqtov; X.Sattorov), “G‘aroyib mehr”, “Ochko‘z Kachal” (I.Saidalimov; G‘.Hamroyev), “Quyosh nuri” (E. Popesku; G‘. Hamroyev), “Qitir-qitir kim bo‘ldi” (E. Chepovetskiy; X.Sattorov), “Meshpolvon” (A.Obidjon; G‘.Hamroyev), “Men dahshatli Barmaley” (X.Sattorov; M.To‘raqulov) kabi spektakllar, bir qator qo‘g‘irchoq konsertlarini sahnalashtirildi. “Mazkur teatr bolalar ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, ahloqiy mezonlarni shakllantirish va ularning ma‘naviy dunyoqarashini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega san‘at maskani sifatida samarali faoliyat olib bordi. Teatr o‘z tomoshalarini maktablar, oromgohlar va kichik sahnalarda namoyish qilishni yo‘lga qo‘ydi. Shuningdek, Qarshi shahrida o‘tkaziladigan bayramlarda o‘z tomoshalari bilan qatnashdi. Teatrning shakllanishi va rivojlanishida rejissyor G‘ayrat Hamroyevning xizmatlari katta bo‘ldi. Mustaqillikning dastlabki yillarida teatr moliyaviy qiyinchiliklarga duch keldi. 1998-yilda teatr binosi ta‘mirlash maqsadida yopildi. Teatrda faoliyat yuritib kelayotgan aktyorlarning bir qismi boshqa sohalarga o‘tib ketdi. 2005-yilda Qashqadaryo viloyati hokimligi qarori bilan teatr qayta tashkil etildi. Mazkur yilda teatrga 12 nafar aktyorlar ishga qabul qilindi[6]. 2010-yildan boshlab teatrdagi yosh rejissorlar faoliyat yuritishni boshladi. Xususan, 2015-yilda Shahrisabz shahrida o‘tkazilgan xalqaro qo‘g‘irchoq teatrlari festivalida Qarshi teatri “Oydin oy din-don” spektakli bilan ishtirok etib, faxrlı 2-o‘rinni qo‘lga kiritdi[7]. 2020-yilda onlayn ko‘rik-festivalda ikkinchi o‘rinni egalladi. 2020-yilda “Yovvoyi oqqushlar” spektaklining premerasi bo‘lib o‘tdi.

Teatr gastrol safarlarida ishtirok etib, Jizzax, Buxoro va boshqa viloyatlarda tomoshalar ko‘rsatdi. Jumladan, 2008-yilda Buxoro viloyatida “Aldar ko‘sa”, “Qalpoqchi va qozon”, 2018-yil Jizzax viloyatida “Shumtaka g‘ozcha”, “O‘jar quyoncha”, 2020-yilda Respublika onlayn qo‘g‘irchoq teatrlari festivalida “Yovvoyi oqqushlar”, 2022-yilda Navoiy viloyatida “Malika Oyparcha”, “Oltin baliqcha” spektakllarini namoyish etdi. 2024-yilda qo‘g‘irchoq teatr jamosi Navoiy viloyatida gastrol safarida bo‘lib, 6 ta spektakl namoyishini amalga oshirdi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5- yanvardagi “2018-2022-yillarda davlat teatrlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi qarori bilan Qashqadaryo viloyati qo‘g‘irchoq teatri binosining yangi qurilishi teatr jamoasi uchun yanada quvonarli voqea bo‘ldi. Mazkur binoning tantanali ochilish marosimida viloyat hokimi Murodjon Azimov, madaniyat vazirining o‘rinbosari Yusufjon Usmonov ishtirok yetdi. Xususan, binoda 204 tomoshabinga mo‘ljallangan katta zal hamda 60 o‘ringa mo‘ljallangan kinoteatr qurilib foydalanishga topshirildi. Shuningdek, eng so‘nggi zamonaviy texnikalar bilan jihozlangan ovoz yozish studiyasi, aktyorlar xonasi, oshxona, tibbiy xizmat ko‘rsatish xonasi hamda xodimlar uchun alohida xonalar ham mavjuddir. Zamonaviy lift

o'rnatilgan. Binoning ikkinchi qavatida mo'jazzgina qo'g'irchoq teatri muzeyi ham tashkil etildi. Undan teatr jamoasining erishgan natijalari, tarixi va faoliyati aks ettirilgan eksponatlar joylashtirildi.[8] Hozirgi kunda viloyat qo'g'irchoq teatri 10-12 nafar doimiy aktyor faoliyat yuritmoqda, asosan maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablarda yiliga o'rtacha 120-140 ta spektakl namoyish etib kelinmoqda. Eshmuradov Elbek Qashqadaryo viloyati qo'g'irchoq teatri direktori lavozimida, To'yliyev Muhridin esa qo'g'irchoq teatri bosh rejissori lavozimida faoliyat yuritmoqda. Xurshid Hakimov, Ozodbek Abduxoliqov, Oygul Xo'janova, Lola Primova, Azizjon G'ulomovlar teatrning istedadli aktyor va aktrisalardan hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo hududida qo'g'irchoq teatri san'ati uning tarixiy ildizlaridan boshlab bugungi kunigacha bo'lgan rivojlanish jarayonida o'ziga xos madaniy va badiiy o'rinni egallaganligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hududdagi an'anaviy marosim va xalq ijodidagi qo'g'irchoqchilik elementlari teatrning shakllanishida va sahna madaniyatining rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Shu bilan birga, Mustaqillik yillarida viloyat qo'g'irchoq teatrlari faoliyatida kuzatilgan innovatsion yo'nalishlar, sahna texnologiyalari va dramaturgiya tarkibining yangilanishi, yosh tomoshabinlar auditoriyasiga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlar va ijrochilik mahoratini oshirishdagi kreativ izlanishlar - teatr san'atining zamonaviy talab va me'yorlarga moslashuvini ta'minlayotganini ko'rsatdi. Shu nuqtai nazardan, Qashqadaryo hududidagi qo'g'irchoq teatri nafaqat milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish vositasi, balki bolalar tarbiyasi va ularning ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega badiiy muassasa sifatida e'tirof etilishi lozim. Kelajakda ushbu san'atni yanada rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik dasturlar, zamonaviy sahna texnologiyalari va xalqaro madaniy hamkorlikni kengaytirish istiqbolli yo'nalishlar sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi 12-jild. Toshkent: 2006 456-458 betlar
2. Abdiraimov G'. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: 1989. – 245 b.
3. O'zbekiston qo'g'irchoq teatri. 2024-yil hisoboti
4. "Xalq so'zi" gazetasi 2023-yil noyabr
5. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. 1985-yil hisoboti
6. Qashqadaryo viloyati hokimligi arxivi. 2005-yil 12-son qaror.
7. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi. 2025-yilgi viloyat teatrlarining statistikasi ma'lumotnomasi. 2025
8. O'zbekiston Milliy axborot agentligi rasmiy sayti ma'lumotnomasi. 2023.
9. Rajabov Q. "O'zbekistonda qo'g'irchoq teatri tarixi" Teatr san'ati, 2018.
10. Qodirov M.X. "O'zbek xalq tomosha san'ati". T.:O'qituvchi. 1981.
11. O'rinov E. "Qo'g'irchoq teatrlarida repertuar masalasi". Teatr, 2004.